

## XORIJ AMALIYOTIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Aliyev Ahmadjon

[ahmadjonaliyeva@gmail.com](mailto:ahmadjonaliyeva@gmail.com)

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14165760>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola xorijiy mamlakatlar tajribasida mediatsiya institutining huquqiy tartibga solinishi masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada mediatsiya institutining xorijiy davlatlardagi huquqiy asoslari, uning amaliyotda qo'llanilishi va samaradorligi o'r ganilgan. Mediatsiyaning nizolarni hal etishdagi ahamiyati, uning an'anaviy sud tartibidan afzallikkleri hamda xalqaro tajribada mediatsiya institutini rivojlantirish tendentsiyalari yoritib berilgan. Shuningdek, mediatsiya sohasidagi xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada mediatsiya institutini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mediatsiya, nizolarni hal qilish, xorijiy tajriba, huquqiy tartibga solish, xalqaro standartlar, mediator, kelishuv bitimi, sud amaliyoti.

## LEGAL REGULATION OF MEDIATION INSTITUTE IN FOREIGN PRACTICE

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of issues of legal regulation of the mediation institution in the experience of foreign countries. The article examines the legal foundations of the mediation institute in foreign countries, its practical use and effectiveness. The importance of mediation in resolving disputes, its advantages over the traditional court procedure, and trends in the development of the institution of mediation in international experience are highlighted. International standards in the field of mediation and implementation of advanced foreign experience into national legislation were also considered. Scientifically based proposals and practical recommendations for further development of the mediation institute have been developed in the article.

**Key words:** mediation, dispute resolution, foreign experience, legal regulation, international standards, mediator, settlement agreement, judicial practice.

## ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКЕ

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу вопросов правового регулирования

института медиации в опыте зарубежных стран. В статье рассматриваются правовые основы института медиации в зарубежных странах, его практическое использование и эффективность. Освещены значение медиации при разрешении споров, ее преимущества перед традиционной судебной процедурой, а также тенденции развития института медиации в международном опыте. Также были рассмотрены международные стандарты в сфере медиации и внедрение передового зарубежного опыта в национальное законодательство. В статье разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по дальнейшему развитию института медиации.

**Ключевые слова:** медиация, разрешение споров, зарубежный опыт, правовое регулирование, международные стандарты, медиатор, мировое соглашение, судебная практика.

---

## KIRISH

Zamonaviy huquq tizimida nizolarni muqobil hal etish usullarining roli tobora ortib bormoqda. Mediatsiya instituti - nizolarni sud tartibidan tashqari hal etishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida jahon miqyosida keng tarqalmoqda. Bu institutning huquqiy tartibga solinishi mamlakatlar bo'yicha turlicha bo'lib, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy davlatlarda mediatsiya institutining huquqiy tartibga solinishi va amaliy qo'llanilishi tajribasini kompleks tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mediatsiya institutining xorijiy mamlakatlardagi huquqiy asoslarini o'rganish;
- mediatsyaning nizolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;
- mediatsiya sohasidagi xalqaro standartlarni tahlil qilish;
- xorijiy davlatlarda mediatsiya institutining amaliy qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish;
- mediatsiya institutini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini aniqlash;
- ilg'or xorijiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti xorijiy mamlakatlarda mediatsiya institutini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi, predmeti esa mediatsiya institutini huquqiy tartibga solishga oid xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, sud amaliyoti va huquqni qo'llash tajribasi

hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu maqolada mediatsiya institutining xorijiy mamlakatlardagi huquqiy asoslari va amaliyoti kompleks tahlil qilingan, ushbu sohada milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha yangi ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## METODLAR

**Adabiyotlar tahlili:** Ushbu taqdiqot xorijiy mamlakatlar tajribasida mediatsiya institutining huquqiy tartibga solinishi masalalarini tahlil maqsadida yetakchi nazariy va amaliy manbalarni tahlil qiladi. Bu jarayonda Google Scholar, Science Direct va Cyberleninka kabi ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlilida mediatsiya institutini rivojlantirish yo'llari e'tiborga olindi. Shu bilan birga, ilmiy maqolalar, kitoblar va konferensiya materiallari ko'rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy, induktsiya va deduktsiya hamda taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR

Tadqiqot davomida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda mediatsiya institutining huquqiy tartibga solinishi o'r ganildi. Mediatsiya to'g'risidagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik mamlakatlarda:

- mediatsiyaning asosiy tamoyillari;
- mediatorning huquqiy maqomi;
- mediatsiya jarayonini o'tkazish tartibi;
- mediatsiya kelishuvi va uning ijrosi masalalari aniq belgilangan.

Shuningdek, xorijiy tajriba natijalari quyidagi tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi:

- fuqarolik-huquqiy nizolarda mediatsiyadan foydalanish 60-70% hollarda ijobjiy natija bermoqda;

- mediatsiya orqali nizo hal etilganda, tomonlarning 85% kelishuvga rioya qilmoqda;
- mediatsiya jarayoni an'anaviy sud tartibiga nisbatan 3-4 barobar tezroq yakunlanmoqda;
- mediatsiya xarajatlari sud xarajatlaridan o'rtacha 2-3 marta kam<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xalqaro standartlar aniqlandi:

- mediatorning mustaqilligi va betarafligi;
- mediatsiya jarayonining ixtiyoriyligi;
- konfidentsiallik tamoyili;

<sup>1</sup> Hopt, K. J., & Steffek, F. (2023). Mediation: Principles and Regulation in Comparative Perspective. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780198837069.001.0001>

- *tomonlarning teng huquqliligi;*
- *mediatsiya kelishuvining ijro etilishi kafolatlari.*

Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- *mediatorlarning malaka talablarini xalqaro standartlarga moslash;*
- *mediatsiya kelishuvining ijrosini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish;*
- *mediatsiyani rag'batlantirish choralarini kengaytirish;*
- *mediatsiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.*

Ushbu natijalar mediatsiya institutini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi va milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilashga xizmat qiladi.

### MUHOKAMA

Anglo-sakson huquqiy tizimi amal qiladigan mamlakatlarda nizolarni mediatsiya yordamida hal qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur huquq tizimida mediatsiya tartibini shakllantirish va rivojlantirish ommaviy huquqdan ko'ra, xususiy huquqning mohiyatida ko'proq namoyon bo'ladi. Chunki, ushu huquq tizimida mediatsiyaning xususiy va davlat huquqiy munosabatlar subyektlari bilan o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ham muhim emas. Mediatsiya tamoyillari asosan xususiy huquq doirasida vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir.

Roman-german huquqiy tizimi mamlakatlari esa mediatsiya institutining doirasi xususiy va davlatga bo'linish bilan bog'liq holda qonun normalari bilan aniq tartibga solinadi. Har qanday faoliyat turini huquqiy jihatdan belgilash masalalarini ko'rib chiqishda qonuniylikni ta'minlaydigan manbalarni hisobga oladi.

AQSh, Buyuk Britaniya va Hamdo'stlik mamlakatlarda turli huquqiy institutlarning rivojlanishi bilan bogliq bo'lgan muayyan tarixiy jarayonlar tufayli huquq manbalari tizimida huquqiy pretsedent yetakchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, anglo-sakson huquqiy oilasining manbalari tizimida qonunlar yoki qonunlar ko'rinishidagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, yuridik odat bilan bir qatorda mediatsiya institutini qonuniylashtirish, unga xo'jalik huquqini berish masalalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar ham mayjud.

Mediatsiya institutining rivojlanishini davrlashtirishda uning zamonaviy shakli birinchi marta XX asr o'rtalarida Amerika Qo'shma Shtatlarida tarqalgan.

1970-yillarga kelib, mediatsiya AQSH hayotida ayniqsa eng kichik hududiy birliklarda keng tarqala boshladi.

Vaqt o'tishi bilan, mediatsiya texnologiyasi nikoh va oilaviy nizolarni hal qilish uchun

qulay vositaga aylanib bordi. O‘tgan asrning 80-90-yillarida shakllangan amaliyot asosida oilaviy mediatsiya mediatsiyaning mutlaqo mustaqil yo‘nalishiga aylandi. Oilaviy nizolar va nizolarni hal qilish bo‘yicha ixtisoslashgan markazlar paydo bo‘ldi, ularda konstruktiv ajralish jarayoni masalalari ko‘rib chiqildi.

Nizolarni suddan tashqari hal qilish shakllari Amerika huquq tizimining muhim qismiga aylandi va osonlik bilan tarqaldi. Ular davlatningadolat tizimiga muqobil sifatida paydo bo‘ldi va qimmat, rasmiy va uzoq davom etadigan sud jarayonlarini oldini olishga xizmat qildi. Masalan, maxfiylik, tomonlarning tengligi, jarayonning borishini nazorat qilish qobiliyati, nizolarni hal qilishning arzonligi, ularni oylar, hatto yillar davomida hal qilinishi o‘rniga vaqt tejamkorligi kabi muhim omillar mediatsiya jarayonining afzalliklari sifatida baholanib, ushbu amaliyotdan foydalanuvchilar soni tobora orta boshladi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda Qo‘shma Shtatlarda “ko‘p eshiklar” deb ataladigan sud modeli mavjud bo‘lib, bu model sud jarayonini o‘tishga kirishishdan oldin nizoni hal qilishning turli usullarini taklif qiladi. Bu modelda tomonlar mediatsiya (vositachilik), arbitraj (arbitraj sudi), muzokara yoki klassik sud jarayonidan birini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu “ko‘p eshiklar” modeli sud tizimining samaradorligini oshirish uchun yaratilgan bo‘lib, tomonlarga eng mos va qulay yo‘lni tanlash orqali nizolarni tezroq va samaraliroq hal qilishni ko‘zda tutadi<sup>3</sup>.

Agar bu jarayonlar samara bermasa, oxirgi chora sifatida klassik sud orqali nizoni hal qilishga o‘tiladi. Bu model Qo‘shma Shtatlardan huquq tizimida muhim o‘rin egallagan bo‘lib, ko‘plab shtatlarda nizolarni hal qilishda qo‘llaniladi va odamlarga sudgacha bo‘lgan vositalardan foydalanish imkonini beradi.

Shubhasiz, nizolarni hal etishda mediatsiya AQShda yuqori samaradorlikka erishgan. Statistikaga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlarda nizolarning 95 foizi suddan tashqari hal etiladi, bu ko‘rsatkich boshqa davlatlarda esa biroz pastroq. Masalan, Angliyada bu ko‘rsatkich 87 foizni, Sloveniyada 35 foizni, Xitoyda esa 30 foizni tashkil etadi<sup>4</sup>. Biroq, Rossiyada suddan tashqari nizolarni hal qilish tajribasi ancha past bo‘lib, u 10 foizdan oshmaydi.

Mediatsiya orqali hal etilgan nizolarning aksariyati, ya’ni 80 foizdan ortig‘i, taraflar o‘rtasida tuzilgan kelishuv bilan yakunlanadi. Ushbu kelishuv ko‘pincha rasmiy sud hujjatlariga tenglashtiriladi va ijro etilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Shu tariqa, mediatsiya jarayoni ko‘plab mamlakatlarda nafaqat nizolarni tezroq hal qilishga

<sup>2</sup> <https://www.mediate.com/>

<sup>3</sup> Медиация базовый курс. Основы применения медиации. Ташкент. 2019. –С. 6.

<sup>4</sup> Мурзанова Е.А. Медиация - способы и задачи урегулирования споров: опыт зарубежных стран //Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева.2016. №4. С. 65.

yordam beradi, balki sud tizimining yukini ham kamaytiradi, bu esa taraflar uchun vaqt va mablag‘ni tejaydi<sup>5</sup>.

Buyuk Britaniyada mediatsiya sohasida yagona, butun qirollik bo‘yicha amal qiluvchi qonun mavjud emas. Shuningdek, mediatsiyaning aniqlangan huquqiy ta’rifi ham yo‘q.

Mediatorlar va huquqshunoslar turli milliy qonun hujjatlariga va ba’zan Yevropa Ittifoqi qonunlariga tayanadilar. Ayniqsa, oilaviy, fuqarolik, xo‘jalik nizolari va voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ayrim jinoiy ishlarda mediatsiya keng qo‘llaniladi.

Mediatsiyani amalga oshirish jarayoni tomonlarning o‘z tashabbuslari asosida umumiy onlayn reestr yoki ixtisoslashgan telefon xizmatlari orqali mos mediatorni tanlash imkoniyati bilan muvofiqlashtirilgan. Bu tizim orqali konsultant nizoning mohiyatiga qarab eng maqbul mediatorni tavsiya qilishi mumkin.

2011-yilda Adliya vazirligi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mediatsiya uchrashuvlarining ko‘p qismi telefon, kompyuter yoki onlayn konferensiya platformalari orqali o‘tkazilishini ko‘rsatdi, bu esa uzoq masofalardagi tomonlar uchun ham qulay va samarali echim bo‘lmoqda<sup>6</sup>.

Germaniyada 2012-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi federal qonun mediatsiya amaliyotini rasmiylashtirdi va huquqiy asos yaratdi. Ushbu qonun Germanianing ba’zi hududlari tomonidan qabul qilingan mahalliy huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda ishlaydi, shu sababli ba’zi mintaqalarda mediatsiya jarayoni mahalliy qoidalarga muvofiq tartibga solinadi. Mediatsiya fuqarolik va oilaviy huquq bilan bir qatorda, ma’muriy sudlarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Germaniya qonunchiligiga ko‘ra, mediatsiya “ixtiyoriy ravishda va tomonlarning mas’uliyati asosida vositachilar yordamida tinch yo‘l bilan nizoni hal qilishga qaratilgan maxfiy tartib” sifatida belgilanadi. Sud tizimi mediatsiyaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, lekin mediatsiya jarayoniga faqat tomonlarning roziligi asosida murojaat qilinadi — ya’ni, sudya nizoni bevosita mediatsiya orqali hal qilishni buyura olmaydi, faqat tavsiya qilishi mumkin.

Germaniyada adliya tizimida mediatsiya amaliyotlari keng qo‘llaniladi, ba’zi ish turlari uchun majburiy yarashtirish tartiblari mavjud. Bu jarayonlar ba’zi holatlarda majburiy, ba’zi holatlarda esa ixtiyoriy hisoblanadi va har bir holat uchun tegishli qoidalalar belgilangan.

Germaniyada yarashtirish xizmatlarini yaratish va ularning faoliyatini nazorat qilish,

<sup>5</sup> Перспективы развития медиации в Республике Башкортостан: обзор круглого стола // Евразийская адвокатура. 2 (3). 2013.

<sup>6</sup> <https://www.gov.uk/guidance/a-guide-to-civil-mediation>

shuningdek, nizolarni bartaraf etish jarayonida mediatsiya amaliyotini yanada aniqroq tartibga solish alohida qonun hujjatlari bilan belgilanadi<sup>7</sup>.

Mediatsiya va yarashuv tartib-qoidalari Yevropaning ko‘plab davlatlarida keng tarqalgan, jumladan, Belgiyada, Niderlandiyada, Fransiyada, Daniyada, Shvetsiyada, Norvegiyada, Polshada, Avstriyada va Italiyada. Ko‘plab Yevropa davlatlari mediatsiya institutini nizolarni hal qilishning samarali usuli sifatida tan oldilar. Bu usul davlat sudlari faoliyatini yengillashtirish, nizolarni chuqurroq o‘rganish, har bir tomonning talablarini qondirish va resurslarni tejash imkoniyatlarini ko‘rib chiqdi.

Italiyada mediatsiya amaliyoti 2010 yildan boshlab jiddiy rivojlandi. O‘shanda Italiyaning hukumat qonunlari fuqarolik ishlari bo‘yicha keng qamrovli mediatsiya jarayonlarini majburiy qilishga qaror qildi. Unga ko‘ra, ko‘chmas mulk, vasiyatnomalar, meros, bank shartnomalari va tibbiy huquqbuzarliklar kabi fuqarolik ishlari uchun mediatsiya majburiy bo‘ldi. Fuqarolar sudga murojaat qilishdan oldin mediatsiya orqali muammoni hal qilishga harakat qilishlari kerak edi.

Agar tomonlar mediatsiyadan o‘tmasdan sudga murojaat qilsalar, sud ishni to‘xtatib, mediatsiya o‘tkazish muddatini belgilashi lozim<sup>8</sup>.

Yevropada mediatsiya amaliyoti nafaqat fuqarolik ishlarida, balki oilaviy, xususiy, va tijorat nizolarini hal qilishda ham samarali qo‘llanilmoqda. Har bir davlat o‘zining mediatsiya jarayonlarini normativ-huquqiy asosda tartibga solish orqali, nizolarni tez va samarali hal qilishga intilmoqda.

Avstriya qonunchiligiga ko‘ra, sud tomonidan o‘tkazilgan mediatatsiya natijasida erishilgan kelishuvlar sud tomonidan tan olinishi mumkin, ammo sudga yetib bormagan mediatatsiya kelishuvlari sud himoyasiga ega bo‘lmaydi<sup>9</sup>.

Yevropadagi mediatatsiya amaliyoti bo‘yicha 2008-yil 21-mayda Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008/52/EC raqamli “Fuqarolik va tijorat ishlaridagi mediatatsiya” direktivasi qabul qilindi, va 2011-yil 21-mayga qadar a’zo davlatlar o‘z qonunchiligidagi tegishli normativlarni joriy qilishni majburiyat sifatida qabul qilishdi. Ushbu direktiva Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning milliy qonunchiligidagi mediatatsiya mexanizmlarini amalga oshirish va ularning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Shuningdek, bu direktiva xalqaro nizolarni hal qilishda mediatatsiyani qo‘llashni ham

<sup>7</sup> Wambier T. Mediation (types-qualification-skills) // International Congress of Procedural Law. Athen 11 - 14 September 2013. Commercial Litigations: Special Cases and Proceedings. Athens-Thessaloniki. P.24 - 25

<sup>8</sup> Сильвестри Э. Медиация по предписанию суда: итальянский опыт // Вестник гражданского процесса. 2015. № 3. С. 161

<sup>9</sup> Бесемер Х. Медиация: Посредничество в конфликтах / Перевод с нем. Н. В. Маловой. Калуга: Духовное познание, 2004. С.17.

nazarda tutadi, bu esa mediatatsiyaning Yevropadan tashqarida ham amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi<sup>10</sup>.

Bunday umumiy tamoyillar va qoidalar mavjud bo'lishiga qaramay, turli mamlakatlarda mediatatsiya usullarining qo'llanilishi tartibi va amaliyoti farq qiladi, lekin umumiy maqsad nizolarni an'anaviy sud jarayonlaridan tashqarida samarali hal qilishga qaratilgan.

Xitoyda taraflar sudga murojaat qilishdan qochishga harakat qiladi, chunki birinchidan, Xitoy sudlari nizoning ma'muriy-davlat tomonini qo'llab-quvvatlash tarafdori deb hisoblanadi. Ikkinchidan, ko'pchilik sudyalar Madaniy inqilobdan keyin huquqshunoslardan emas, balki iste'fodagi harbiy va davlat xizmatchilaridan tayinlangan, shu sabali ular nizoga huquqiy jihatdan yechim topishda qiynaladilar. Uchinchidan, Xitoyning mustaqil sudi kontseptsiyasi bugungi kungacha Xitoy aholisi tomonidan katta shubha ostida qolmoqda, shuning uchun davlat sudlari davlat organlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan organlar sifatida qaraladi. Xitoy sud tizimining ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda, xitoyliklar nizoni hal qilish uchun tarixan norasmiy usullardan foydalanganlar, chunki rasmiy usullarga murojaat qilish aybni tan olishni anglatadi va keyin har qanday holatda davlat organi foydasiga qaror qabul qilishga olib keladi. Yuqoridagi omillar bilan bog'liq holda, Xitoy dunyoda mediatsiyaning Konstitutsiyada mustahkamlangan yagona davlatga aylandi<sup>11</sup>. Konstitutsiyaviy konsolidatsiya tufayli, shuningdek, Xitoyning Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, mamlakat aholisining mediatsiya tartibini amalga oshirishi uchun qulaylik yaratish uchun ommaviy tashkilotlar yaratildi. Konstitutsiyaga mediatsiya institutining kiritilishi ushbu tartibni davlat ijro hokimiyati tizimiga kiritilishiga, bu tartibning davlatga to'liq bo'y sunishiga va alohida davlat instituti sifatida shakllanilishiga olib kelgan<sup>12</sup>.

Xitoyda mediatsiya atamasi nizolarni hal etishning muqobil usullarining bir necha turlariga nisbatan qo'llaniladi: sudda yarashtirish (sud mediatsiyasi); ommaviy vositachilik (mediatsiya); hakamlik muhokomasi doirasida olib boriladigan mediatsiya; professional tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan vositachilik (tijorat vositachiligi).

Sudda yashuv taraflar o'rtasidagi nizoni hal qilishda sudya (sudyalar hay'ati), manfaatdor shaxslar, tashkilot vakili ishtirok etishini nazarda tutadi. Xalq mediatsiyasi "Xalq mediatsiyasi to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 2-moddasida xalq

<sup>10</sup> Директива № 2008/52/EC Европейского парламента и Совета Европейского Союза "О некоторых аспектах посредничества (медиации) в гражданских и коммерческих делах" [рус., англ.] (Принята в г. Страсбурге 21.05.2008) // официальный сайт законодательства Европейского Союза. URL: <http://eur-lex.europa.eu>

<sup>11</sup> Законодательство Китая / Конституция КНР 1982 г. (с изм. 1988, 1993, 1999, 2004 гг.). URL: [http://chinalawinfo.ru/constitutional\\_law/constitution](http://chinalawinfo.ru/constitutional_law/constitution)

<sup>12</sup> Марков С.М. Медиация в России и Китае: сходства и различия в трактовке альтернативной процедуры разрешения споров (медиации). П-32. С.М. Марков, А.О. Шарапова // American scientific Literature

kelishuvchilarining vazifasi nizo tomonlarini kelishuv bitimini tuzishga ishontirishdir deb belgilangan<sup>13</sup>.

Yaponiyada mediator tomonlarga maslahat berishi va nizodan chiqish yo'llarini taklif qilishi mumkin. Yaponiyada maxsus "Fuqarolarning yashovi to'g'risida"gi qonun mavjud bo'lib, u mediatsiya tartib-taomilini o'tkazish tartibini tartibga soladi, shuningdek, mediatorlarning kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Yaponiyada mediatsiya xizmatlari turli institutlar tomonidan taqdim etiladi: sudlar, jamoat birlashmalari va ma'muriy idoralardir<sup>14</sup>.

## XULOSA

Xalqaro tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, mediatsiya instituti nizolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biri sifatida dunyo miqyosida keng tarqalgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mediatsiya institutining huquqiy tartibga solinishida rivojlangan mamlakatlarda mediatsiya institutining huquqiy asoslari mustahkam bo'lib, maxsus qonunlar orqali tartibga solingani; mediatorlarning professional faoliyatini litsenziyalash va sertifikatlash tizimlari joriy etilgani; mediatsiya jarayonining konfidensiallik tamoyili va mediativ kelishuvning ijro etilishi kafolatlari ta'minlanganligi aniqlandi.

## TAKLIFLAR

Xorij tajribasini o'rganish asosida O'zbekistonda mediatsiya institutini yanada rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mediatorlar malakasiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish;
- mediatsiya to'g'risidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish;
- mediatsyaning qo'llanilish doirasini kengaytirish;
- mediativ kelishuvlarning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.

### *Maxsus takliflar:*

Sud tizimiga mediatsiyani sudya tomonidan tayinlash subinstitutsiyasini joriy etish.

Qonunga tomonlar o'rtaida yuzaga kelgan nizoga nisbatan mediatsiya tartib-taomilini kelajakda qo'llash mumkinligini aniqlashga qaratilgan dastlabki mediatsiya bosqichini joriy etish.

Bunda, sudga kelib tushgan nizo bo'yicha sudya taraflarning kelajakda mediatsiya kelishuviga erishish mumkinligi haqida asosli xulosalar mavjud bo'lsa, ishni ko'rishga tayyorlash bosqichida sudya mediatsiyani qo'llash imkoniyatini aniqlash yuzasidan ajrim chiqarib, ijro uchun mediatorga yuborish bilan bog'liq qoidalar belgilash maqsadga muvofiq. Agar mediator dastlabki

<sup>13</sup> Закон КНР «О народном посредничестве» Legislation China (Lexadin) // <http://www.lexadin.nl/wlg/legis/nofr/oeur/lxwechi.htm>.

<sup>14</sup> Русакова Е.П. Гражданский процесс и гражданское законодательство в странах Азиатско-Тихоокеанского региона: монография /В.В. Безбах и др.- Москва: РУДН, 2015, с.178.

mediatsiya bosqichida taraflar o'rtasida mediatsiya tartib-taomilini amalgalashish to'g'risida kelishuv tuzilganligi ma'lum qilsa, sud fuqarolik ishini mediatsiya kelishuvi tuzilguniga qadar ish yuritishdan to'xtatib turadi. Bunday tartibni joriy etish taraflarga nizoni tezroq hal etish, sndlarda ish yuklamasini kamaytirish imkonini beradi.

Sudga kelib tushishi mumkin bo'lgan nizolarni Buyuk Britaniyada joriy etilgan da'volar portali deb nomlangan sudgacha hal qilishning elektron platformasini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu platformada yo'l-transport hodisasi natijasida hayot, sog'liq va mulkka yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq fuqarolik nizolarining muayyan turi hal qilinadi. Portaldan foydalanish uchun to'lov olinmaydi. Bunday portal mohiyatan onlayn mediator vazifasini bajaradi, tomonlarga muzokaralar uchun neytral forum taklif qiladi va sudgacha bo'lgan bosqichda vositachilik kelishuviga erishishi imkoniyatini beradi. Bunday platformani Adliya vazirligi tizimida, Apellyatsiya Kengashlarida yoki Mediatorlar palatasini tashkil etgan holda uni tarkibida joriy etish mumkin.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda nizolarni hal etishning muqabil usullarini rivojlantirishga va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Hopt, K. J., & Steffek, F. (2023). Mediation: Principles and Regulation in Comparative Perspective. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780198837069.001.0001>
2. Медиация базовый курс. Основы применения медиации. Ташкент. 2019. –С. 6.
3. Мурзанова Е.А. Медиация - способы и задачи урегулирования споров: опыт зарубежных стран //Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева.2016. №4. С. 65.
4. Перспективы развития медиации в Республике Башкортостан: обзор круглого стола // Евразийская адвокатура. 2 (3). 2013.
5. Wambier T. Mediation (types-qualification-skills) // International Congress of Procedural Law. Athen 11 - 14 September 2013. Commercial Litigations: Special Cases and Proceedings. Athens-Thessaloniki. P.24 – 25
6. Сильвести Э. Медиация по предписанию суда: итальянский опыт // Вестник гражданского процесса. 2015. № 3. С. 161
7. Бесемер Х. Медиация: Посредничество в конфликтах / Перевод с нем. Н. В. Маловой. Калуга: Духовное познание, 2004. С.17.

8. Директива № 2008/52/EC Европейского парламента и Совета Европейского Союза "О некоторых аспектах посредничества (медиации) в гражданских и коммерческих делах" [рус., англ.] (Принята в г. Страсбурге 21.05.2008) // официальный сайт законодательства Европейского Союза. URL: <http://eur-lex.europa.eu>
9. Законодательство Китая / Конституция КНР 1982 г. (с изм. 1988, 1993, 1999, 2004 гг.). URL: [http://chinalawinfo.ru/constitutional\\_law/constitution](http://chinalawinfo.ru/constitutional_law/constitution)
10. Марков С.М. Медиация в России и Китае: сходства и различия в трактовке альтернативной процедуры разрешения споров (медиации). П-32. С.М. Марков, А.О. Шарапова // American scientific Literature
11. Закон КНР «О народном посредничестве» Legislation China (Lexadin) // <http://www.lexadin.nl/wlg/legis/nofr/oeur/lxwechi.htm>.
12. Русакова Е.П. Гражданский процесс и гражданское законодательство в странах Азиатско-Тихоокеанского региона: монография /В.В. Безбах и др.- Москва: РУДН, 2015, с.178.

**INTERNET SAYTLARI**

13. Google Scholar. <https://scholar.google.com/>
14. CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/>
15. Science Direct. <https://www.sciencedirect.com/>